



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2026-yil 8-iyul, chorshanba,
60 (24.240)-son

O'zbek xalq
maqoli

Bug'doy
noning
bo'lmasa
ham, ochiq
yuzing
bo'lsin

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz

https://www.facebook.com/zarnews.uz

@zarnews_uz

https://twitter.com/zarnews_uz

info@zarnews.uz

MUSTAQILLIK

35



YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO'LIB,
YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!



Shaharga shaxsiy avtotransportda kirish bosqichma-bosqich kamaytiriladi

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev shaharlarda “yashil shahar” tamoyillarini joriy etish yuzasidan takliflar taqdimoti bilan tanishdi. Jumladan, taqdimotda shaharlar ekologik barqarorligini ta'minlash bo'yicha “Green Samarkand” modeli ko'rib chiqildi.

Mazkur model doirasida 2030-yilga qadar Samarqand shahrida aniq ekologik ko'rsatkichlarga erishish belgilangan.

Loyihani amalga oshirish uchun viloyat hokimligi hamda Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi ishtirokida **“Yashil Samarqand” loyiha ofisi tashkil etiladi.** Ushbu ofis shaharsozlik, ekologiya, transport, qurilish, turizm, sanoat va kommunal xizmatlar sohalarida belgilangan tadbirlarni yagona tizimda muvofiqlashtiradi.

Samarqand shahrida maxsus ekologik-shaharsozlik rejimi joriy etilib, yangi quriladigan va rekonstruksiya qilinadigan obyektlar uchun **“yashil qurilish” talablari majburiy etib belgilanadi.** Bunda energiya va suv tejamkor texnologiyalardan foydalanish, chiqindilarni saralash va qayta ishlash tizimlarini joriy etish, resurs samaradorligini oshirish hamda ekologik talablarga javob bermaydigan obyektlarni foydalanishga qabul qilmaslik amaliyoti yo'lga qo'yiladi.

Transport sohasida Samarqand shahrini ekologik toza harakatlanish modeliga o'tkazish nazarda tutilgan. Buning uchun 50 ta zamonaviy katta sig'imli elektrobus xarid qilish, chorrahalarda 150 ta yangi svetofor o'rnatish, **2030-yilga qadar jamoat transporti va taksi xizmatini to'liq elektr transportiga o'tkazish choralari ko'riladi.** Shu bilan birga, “Park & Ride” tizimi joriy etilib, **piyodalar harakati ustuvor bo'lgan yashil turistik hududlar tashkil qilinadi, shahar markaziga shaxsiy avtotransport kirishi bosqichma-bosqich kamaytiriladi.**

Suv va “yashil” infratuzilmani rivojlantirish maqsadida **Samarqand shahrida kamida 4 ta, viloyat tumanlari markazlarida esa kamida bittadan sun'iy ko'l va suv havzalari tashkil etiladi.** Samarqand shahrida qo'shimcha 10 ta yangi favvora qurilib, mavjud favvoralar infratuzilmasi modernizatsiya qilinadi. Shuningdek, **umumiy uzunligi 319 kilometr bo'lgan ariqlar tizimi quriladi va tiklanadi.**

Shahar atrofida himoyaviy “yashil” infratuzilmani shakllantirish maqsadida “Yangi katta halqa yo'li” bo'ylab uzunligi 102,7 kilometr, umumiy maydoni 3532 gektar bo'lgan “yashil belbog” barpo etiladi. Ushbu belbog'chang va issiq havo oqimlarini kamaytirish, atmosfera havosi sifatini yaxshilash, shahar atrofida tabiiy himoya zonasini

yaratish hamda iqlimga moslashuv choralarini kuchaytirishga qaratilgan.

Shaharsozlik yo'nalishida **300 gektar maydonda “Green City Samarkand” hududini tashkil etish ko'zda tutilgan.** Ushbu hududda turarjoy, ofis, xizmat ko'rsatish, turizm va jamoat infratuzilmasi obyektlari xalqaro “yashil shahar” standartlari asosida barpo etiladi.

Sanoat obyektlarining ekologik ta'sirini kamaytirish uchun “yashil sanoat zonasini” hududida eng maqbul texnologiyalar, “Zero Visible Emission” va raqamli ekologik monitoring tizimlari bosqichma-bosqich joriy etiladi. Mavjud **sanoat zonalarini atrofida “yashil belbog”lar tashkil etiladi** hamda aholi sog'lig'iga jiddiy xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan I va II toifaga mansub **8 ta sanoat korxonasini shahar hududidan tashqariga ko'chirish choralari ko'riladi.**

Chiqindilarni boshqarish sohasida “Zero Waste Samarkand” tamoyili asosida chiqindilarni saralash, qayta ishlash va poligonlarga yuboriladigan hajmini kamaytirish tizimi joriy etiladi. Noqonuniy chiqindi tashlash holatlarini raqamli xaritalash va foto-videofiksatsiya qilish bo'yicha axborot tizimi ishga tushiriladi.

Iqlim siyosati yo'nalishida Samarqand shahri uchun 2030-va 2035-yillarga mo'ljallangan uglerod chiqindilarini qisqartirish maqsadli ko'rsatkichlari hamda **“Carbon Neutral Samarkand” “yo'l xaritasini” ishlab chiqiladi.** Shuningdek, yashil va iqlim loyihalarini moliyalashtirish uchun “Green Samarkand Climate Finance Facility” platformasi ishga tushiriladi.

Turizm va bioxilma-xillik yo'nalishida “Yashil Samarqand” brendi, “Green Hotels Samarkand” reyting tizimi, “Samarkand City Biodiversity Index” metodologiyasi, “Urban Biodiversity Samarkand” pilot loyihasi va “Bioxilma-xillikni asraymiz” ko'ngillilar dasturi amalga oshiriladi. Shu orqali Samarqand shahri ekologik turizm, yashil investitsiyalar va barqaror shaharsozlik yechimlari markaziga aylantiriladi.

Umuman, loyiha doirasida **Samarqandni “Markaziy Osiyoning yashil investitsiyalar va innovatsiyalar poytaxti”** sifatida shakllantirish uchun tashkiliy, moliyaviy va amaliy asoslar yaratiladi.

Viloyat hokimligida fuqarolar murojaatlari bilan ishlash va aholini qiynab kelayotgan muammolarga yechim topish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazildi.

Viloyat hokimi A. Boboyev hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Xalq qabulxonasi boshlig'i F. Omonov ishtirokida o'tkazilgan yig'ilishda viloyat boshqarma va idoralar rahbarlari, tuman va shaharlar hokimlari, Xalq qabulxonalari hamda aholi murojaatlari bilan ishlashga mas'ul qatnashdi.

Yig'ilishda dastlab **Ochilov Xurshid Abdurashidovich** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining viloyatdagi Xalq qabulxonasi mudiri o'rinbosari lavozimiga tayinlangani ma'lum qilindi. X. Ochilov bundan avval viloyat hokimi o'rinbosari hamda viloyat hokimi o'rinbosari kotibiyati mudiri vazifalarida faoliyat ko'rsatgan.

Shundan so'ng majlisda viloyatda aholi murojaatlari bilan ishlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar tanqidiy tahlil qilindi.

Joriy yilning birinchi yarmida viloyatda Prezident virtual va Xalq qabulxonalari 28 mingdan ortiq fuqarodan 39,9 ming murojaat kelib tushgan va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8 foizga kamaygan, — dedi **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Xalq qabulxonasi boshlig'i F. Omonov.** — Murojaatlarning 39 foizi ijobiy hal etilgan. Bu albatta, yaxshi ko'rsatkich. Murojaatlarda ko'tarilgan masalalarning 73 foizi ijtimoiy himoya, elektr, gaz, suv



ta'minoti, Majburiy ijro byurosi, ichki ishlar, prokuratura, bandlik va xotin-qizlar qo'mitalari bilan bog'liq. Urgut va Narpay tumanlaridan tashqari barcha tuman va shaharlarda murojaatlar o'tgan yilga nisbatan kamaygan. Ammo ayrim mahallalar va tashkilotlar kesimida murojaatlar ko'paygan. Takroriy murojaatlar ham ba'zi hududlarda ko'p qayd etilgan. Respublika Xalq qabulxonasi rahbari murojaatlar tahlili bo'yicha mas'ullardan izoh so'radi hamda eng ko'p masala qayd etilayotgan hududlar va mutasaddi idoralar rah-



barlarining joylarda sayyor qabullar o'tkazishga jiddiy e'tibor qaratishlari zarurligini ta'kidladi.

— To'g'ri, bugun hokimlar va boshqa soha rahbarlarining ham zimmasida juda ko'p vazifalar, majburiyatlar bor, — dedi F. Omonov. — Lekin murojaatlar masalasi ular orasida eng muhimlaridan hisoblanadi. Shu sababli ham hurmatli Prezidentimiz endilikda joylardagi Xalq qabulxonalari-ga hokimlar jamoatchilik asosida rahbar bo'lishini belgilab berdilar. Bu hokimlarga avvalo, aholining hayoti va kayfiyati bilan yaqindan tanishgan

holda, hududda qaysi masalalarga ko'proq e'tibor qaratish zarurligini aniqlashga hamda kelgusi rejalarni belgilab olishga muhim asos bo'ladi.

Yig'ilishda har bir murojaatga jiddiy e'tibor qaratish, ularni ko'rib chiqish va hal etishda qonun talablariga qat'iy rioya qilish, joylarda rahbarlarning sayyor qabullarini muntazam o'tkazish va bu haqda aholining xabardorligini oshirish, shuningdek, qabullarni tashkil etishda zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlari-dan samarali foydalanish zarurligi qayd etildi.

Markaziy istirohat bog'i

tunu kun faoliyat yuritadi

Samarqand shahridagi Alisher Navoiy nomli markaziy madaniyat va istirohat bog'ida obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari olib borilmoqda. Viloyat hokimi taklifi bilan bog' infratuzilmasini to'liq yangilash, uni zamonaviy talablarga moslashtirish hamda aholi uchun yanada qulay va xavfsiz dam olish maskaniga aylantirish maqsad qilingan.

Loyiha doirasida bog'ning qismi tubdan yangilanmoqda. Jumladan, 1100 kvadrat metr maydonni egallagan peshtoq qayta ta'mirlanadi. Shuningdek, yangi piyodalar yo'laklari qurilib, 4850 kvadrat metr maydonga zamonaviy plitkalar yotqizilmoqda. Dam oluvchilar uchun qo'shimcha 80 ta o'rindiqlik va energiya tejamkor 100 ta tungi chiroq o'rnatilishi rejalashtirilgan.

Samarqand shahri **obodonlashtirish boshqarmasining istirohat bog'i bo'yicha mutaxassisi Xurshid Ravshanovning ta'kidlashicha**, bog'da yashil hududlarni kengaytirishga alohida e'tibor qaratilgan. Shu maqsadda 1870 tup katalpa, pavloniya, qayrag'och, klyon, yapon safforasi kabi manzarali daraxt va butalar ekilgan. Kasallangan daraxtlar mutaxassislar tomonidan parvarishlanmoqda.

Qurilish ishlari amalga oshirayotgan «Samarqand sifat stroy siti» MChJ tomonidan bog'da zamonaviy energiya tejamkor yoritish tizimi o'rnatilmoqda. Bu esa istirohat maskanining tungi ko'rinishini yanada jozibador qilib, xavfsizlik darajasini oshiradi. Shuningdek, bolalar va kattalar

uchun alohida dam olish hududi tashkil etilishi rejalashtirilgan.

Mustaqillik ko'chasi bo'ylab 1400 metr masofaga tejamkor yoritish chiroqlari o'rnatiladi. Yo'laklarning 45 ming pogonometr qismida plitkalar yangilanib, 300 ta soya-salqin joy barpo etiladi hamda qariyb 100 ta zamonaviy o'rindiqlik o'rnatiladi.

Quruvchilar brigadasi boshlig'i G'ulomjon Qudratovning aytishicha, hozirda har kuni 150 metr yo'lakka granit plitkalar yotqizilmoqda. Yaqin kunlarda yana 1,5 ming kvadrat metr maydonda ishlar davom ettirilib, qurilishda ishtirok etayotgan ishchilar soni 24 nafarga yetkaziladi.

Loyihada tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash masalasi ham nazarda tutilgan. Bog' hududida muzqaymoq, salqin ichimliklar, esdalik sovg'alari hamda



bolalar uchun turli mahsulotlar sotiladigan maxsus savdo nuqtalari tashkil etiladi.

— Bog'ni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash maqsadida yuqori quvvatli transformator o'rnatilmoqda, — deydi «Samarqand sifat stroy siti» MChJ ish boshqaruvchisi G'iyos Mamarasulov. — Shuningdek, barcha zinapoyalar 1200 kvadrat metr mar-mar qoplama bilan bezatiladi. Ayni paytgacha 700 kvadrat metr maydonda bu ishlar yakunlandi. Eng muhimi, qurilish jarayonida bog'dagi birorta ham daraxt kesilmaydi, ularning barchasi saqlab qolinadi.

Mutaxassislarning qayd etishicha, bog'ning 7 gektar yashil hududi hanuzgacha

qo'l kuchi bilan sug'orilishi ko'p suv sarf bo'lishiga olib kelmoqda. Shu bois mazkur hududda tejamkor tomchilatib sug'orish tizimini yo'lga qo'yish taklif etilmoqda.

Qurilish va obodonlashtirish ishlari yakunlangach, Alisher Navoiy nomidagi markaziy madaniyat va istirohat bog'i nafaqat kunduzi, balki kechki paytlarda ham samarqandliklar va shahar mehmonlari uchun zamonaviy va xavfsiz hordiq maskaniga aylanadi.

Dilmurod TO'XTAYEV, “Zarafshon” muxbiri.



SHOVQIN — SALOMATLIK UCHUN XAVFLI

Yaqinda Oliy Majlis Senati yalpi majlisida aholini shovqinning zararli ta'siridan himoya qilish choralarini kuchaytirish ma'qullandi. Bir qarashda bu qonunga ehtiyoj bormidi, degan savol tug'ilishi tabiiy. Ammo Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, shovqin havo va suv ifloslanishidan keyingi uchinchi eng xavfli ifloslanish turi hisoblanadi.

Shovqin inson salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Altsgeymer kasalligi, karlik, yurak-qon tomir xastaliklari va asab tizimi buzilishlariga sabab bo'lishi mumkin. Hozirda dunyo bo'yicha 360 millionga yaqin odam bunday muammolardan aziyat chekmoqda.

Shuningdek, doimiy shovqin ish qobiliyatini 10–30 foizgacha kamaytiradi, bolalar va yoshlar salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda ta'lim sifatini pasaytiradi.

So'nggi yillarda yirik shaharlarda qurilish ishlari, transport va xizmat ko'rsatish sohasining kengayishi shovqin darajasining oshishiga olib keldi.

Fuqarolardan kelayotgan murojaatlar tahlili shuni ko'rsatdiki, tungi qurilish ishlari, restoran va kafelardagi baland musiqa hamda transport shovqini aholiga noqulaylik tug'dirmoqda.

Ilgari bu soha asosan sanitariya qoidalarini (San-PIN) bilan tartibga solinar edi, biroq qonunchilikda aniq javobgarlik mexanizmlari yetarli emas edi.

Yangi qonun «Aholini shovqinning zararli ta'siridan himoya qilish to'g'risida» bo'lib, unda davlat organlari vakolat-



lari, me'yorlar, cheklolvar va javobgarlik tizimi aniq belgilangan.

Qonun Vazirlar Mahkamasini, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik qo'mitasi, Ichki ishlar vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi hamda boshqa organlar hamkorligida amalga oshiriladi.

Hujjatda shovqin darajasi, cheklov vaqtlari, transport vositalari uchun talablar hamda kompensatsiya tizimi belgilanmoqda.

Qonun fuqarolarning tinchligi va dam olishini buzadigan ortiqcha shovqinlarni cheklashni nazarda tutadi.

Shovqin va mehnat sharoitlari bilan bog'liq normalar buzilganda javobgarlik kuchaytirilmoqda.

Maryam NIYOZOVA, Oliy Majlis Senati a'zosi

Munosabat

Bugun dunyo taraqqiyoti yangi bosqichga ko'tarildi. Endilikda davlatlarning qudrati hududi yoki tabiiy boyliklari bilan emas, balki bilim, texnologiya va inson kapitali bilan belgilanmoqda. Prezidentimiz 30-iyun kuni yoshlar bilan uchrashuvda aynan shu haqiqatni alohida ta'kidlab, Yangi O'zbekiston taraqqiyotining tayanchi bilimli, tashabbuskor va mas'uliyatli yoshlar ekanini qayd etdi.

Davlatimiz rahbarining nutqida ilgari surilgan g'oyalarni chuqur falsafiy mazmun kasb etadi: **“Vorislk faqat faxrlanish emas, vorislk bu ulkan mas'uliyat hamdir.”**

Ushbu fikr, avvalo, biz - pedagogika sohasi vakillari va bo'lajak pedagoglar zimmasiga yuklatilgan mas'uliyatni yanada teranroq anglashga undaydi. Zero, pedagog nafaqat dars beruvchi mutaxassis, balki jamiyatning ertangi qiyofasini shakllantiruvchi, millatning tarixiy xotirasi, ma'naviy qadriyatlarini va ilmiy merosini kelajak avlodga yetkazuvchi shaxsdir. Shuning uchun ham bugun pedagogika oliy ta'lim muassasalari oldida turgan eng muhim vazifalardan biri zamonaviy bilim va kasbga ega mutaxassis kadrlarni yetkazish bilan birga vorislk mas'uliyatini chuqur his qiladigan ustozni tarbiyalashdan ham iboratdir.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, mamlakatimizda yoshlarni ko'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Bu siyosat natijasida mahallalarda yoshlar yetakchilari korpusi shakllantirildi. Mazkur tizimning samaradorligi esa avvalo, oliy ta'lim muassasalari shakllanayotgan liderlik maktabiga tayanadi.

Samarqand davlat pedagogika institutida ham talabalar turli yo'nalishlarda koordinator, volontyor va jamoatchilik faollari sifatida faoliyat yuritib, tengdoshlari bilan ishlash, ularning muammolarini tinglash va amaliy yechim topish ko'nikmalarini egallamoqdalar. Shu kabi hamkorlik tajribalari mahallalardagi yoshlar yetakchilari faoliyati sama-



Viloyatda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni izchil ortib bormoqda. Hozirda 728 ta korxona xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat yuritmoqda. Shundan 265 tasi qo'shma korxona, 463 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

2025-yilning mos davriga nisbatan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni 113 taga oshgan. Bu o'sish asosan sanoat (214 tadan – 2050 taga), savdo (166 tadan – 186 taga) hamda tashish va saqlash (23 tadan – 27 taga) sohaslaridagi korxonalar sonining ko'payishi hisobiga yuz berdi.

IQTISODIY TARAQQIYOTNING YANGI UFQLARI

Yoxud kichik biznes o'sishi yo'lidagi tarixiy burilish

Shiddat bilan o'zgarayotgan global iqtisodiy jarayonlar, bozorlardagi raqobat va zamon talablari har bir davlatdan moslashuvchan, dadil va uzoqni ko'zlagan islohotlarni talab etmoqda. O'zbekiston o'z mustaqilligi va taraqqiyotining yangi bosqichida mana shunday shiddatli karvonning eng oldingi saflaridan joy olishga intilmoqda. Mamlakat iqtisodiyotining qon tomiri, jamiyatning eng harakatchan va yaratuvchan qatlami bo'lmish tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash esa davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi.

Davlatimiz rahbari tomonidan joriy yil 26-mayda imzolangan «Kichik biznes subyektlarining o'sishi uchun yanada qulay iqtisodiy va ma'muriy shart-sharoitlar yaratish to'g'risida»gi farmon yurtimizda ishbilarmonlik muhitini mutlaqo yangi bosqichga olib chiquvchi, biznesga yanada qulaylik beruvchi muhim hujjat bo'ldi.

Masalan, ko'p yillar davomida kichik biznes vakillari ma'lum bir aylanma mablag' chegarasiga yetganda o'z faoliyatini sun'iy ravishda to'xtatishga yoki firmalarni bo'lib yuborishga majbur bo'lardi. Nega? Chunki umumiy soliq tizimiga o'tish kichik biznes uchun juda katta ma'muriy yuk va moliyaviy zarba bo'lib tuyulardi. Ya'ni, biznes «o'sishdan qo'rqardi».

Yangi farmon mana shu sun'iy qo'rquvga barham bermoqda. Joriy yil 1-iyundan soliq solishning umumbelgilangan tartibiga o'tish uchun belgilangan chegaraviy miqdor bazaviy hisoblash miqdorining 12000 baravari etib belgilandi.

Bu nima beradi? Bu endi tadbirkorlar o'z aylanmalarini bemalol oshirishlari mumkinligini anglatadi. Yirik korxonaga aylanish jarayonida tizim ularni iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlab, «yumshoq o'tish» imkoniyatini taqdim etadi.

Agar siz ko'chadagi oddiy qahvaxona, milliy taomlar maskani yoki kichikroq mehmonxona egasi bo'lsangiz, kundalik faoliyatingizda qanchalik ko'p mayda-chuyda, ammo tinkani quritadigan byurokratik qoidalar bo'lganini yaxshi bilasiz. Farmonning uchinchi bo'limi aynan mana shu soha vakillari uchun haqiqiy yengillik bo'ldi, deyish mumkin.

Mehmonxona va restoranlarda alkogol va tamaki mahsulotlari sotilayotganda naqd pul to'lovlarini qabul qilishga rasman ruxsat berildi. Bundan tashqari, alkogol mahsulotlari xarid qilinganda raqamli markirovka kodlari ushbu maskanlarda yakuniy



iste'molga realizatsiya qilingan deb hisoblanadi. Ya'ni, ortiqcha hisobotlar, «u kod unday ketdi, bu kod bunday ketdi» kabi asabzuzliklar kamayadi.

Restoran va umumiy ovqatlanish sohasining eng katta muammolaridan biri ishchi kuchining tez-tez o'zgarib turishi, ayniqsa to'y-hashamlar va mavsumiy tadbirlar paytida qo'shimcha xodimlarni qisqa muddatga jalb qilish edi. Ularni rasmiylashtirish, soliq va mehnat daftarchasini yuritish ko'p vaqt olardi. Endi xodimlarni mehnat organlarining mobil ilovasi orqali shu kunning o'zida, soddalashtirilgan tartibda va muayyan muddatga rasmiylashtirish mumkin.

Ish haqini to'lash va hisob-kitob qilish tizimi ham maksimal darajada osonlashtirildi. Bu yashirin iqtisodiyotga barham berish bilan birga, minglab yoshlarning qonuniy daromad topishiga yo'l ochadi.

Yana bir muhim yangilik — umumiy ovqatlanish korxonalari uchun to'langan qo'shilgan qiymat solig'i (QQS)ning bir qismini qaytarish tizimi joriy etildi. Tushumning naqd yoki naqdsiz bo'lishidan qat'i nazar, to'langan soliq summasi-

ning 40 foizi qaytariladi. Bu biznes ixtiyorida katta aylanma mablag' qolishini va u xizmat sifatini yaxshilashga hamda ish haqini oshirishga yo'naltirilishini anglatadi.

Aslida qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) dunyo miqyosida ham, bizda ham eng murakkab soliqlardan biri sanaladi. Uni to'g'ri hisoblash va hisobot topshirish kichik tadbirkorlar uchun og'irlik qilardi. Endi bu borada yengilliklar joriy etilmoqda. Jumladan, 2026-yil 1-iyundan 2030-yil 1-yanvargacha qadar umumiy ovqatlanish, savdo va xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar (davlat ulushi bor va yirik soliq to'lovchilardan tashqari) ixtiyoriy ravishda QQSning soddalashtirilgan tartibini tanlashlari mumkin.

Ko'pchilik ishbilarmonlarning haqli e'tirozlari-ga sabab bo'ladigan masalalardan biri — soliq idoralari tomonidan turli guvohnomalarining to'xtatib qo'yilishi, asossiz tekshiruvlar va mablag'larni qaytarishdagi sansalorliklar edi. Yangi farmon ushbu tizimni tubdan isloh qilib, byurokratiya va korruptsiyaning ildiziga bolta urmoqda.

Ilgari QQS guvohnomasining vaqtincha to'xtatib qo'yilishi tadbirkorlik faoliyatini falaj qilib qo'yardi. Endilikda QQS to'lovchisi guvohnomasini vaqtincha to'xtatib turish tartibi butunlay bekor qilindi. Bu guvohnoma faqat hisob-kitob yuritish uchun xizmat qiladi va u hech qachon biznesga nisbatan ta'sir chorasini yoki jazo vositasi bo'la olmaydi.

Shuningdek, import qiluvchi kichik korxonalar va o'zini o'zi band qilgan shaxslarni majburiy ravishda QQS to'lovchisi sifatida e'tirof etish tartibi ham bekor qilindi.

«Xato qilmagan odam — ishlamagan odam». Ayniqsa, kichik biznesda hisob-kitob va hujjatlarda kichik xatolar bo'lishi tabiiy hol. Ilgari bunday xatolar darhol jarima va moliyaviy sanksiyalarga sabab bo'lardi.

Yangi hujjat bilan 2028-yil 1-yanvargacha qadar kichik biznes subyektlariga «Soliq xavfini aniqlash, tahlil qilish va baholash» avtomatlashtirilgan dasturi orqali aniqlangan xatolarni mustaqil ravishda, hech qanday jazosiz tuzatish imkoniyati berilmoqda.

Yaratilayotgan bunday qulayliklar tadbirkorlar zimmasiga ham katta ijtimoiy mas'uliyat yuklaydi. Endi biznes vakillari «soya»dan chiqib, shaffof ishlashi, xodimlarga munosib sharoit yaratishi va davlat bilan teng huquqli hamkor sifatida ishlashi lozim.

Bir so'z bilan aytganda, iqtisodiy islohotlarning yangi to'lqini boshlandi. Bu to'lqin O'zbekistonda dunyoning eng rivojlangan va biznes uchun eng jozibador mamlakatlari qatoriga olib chiqilishi shubhasiz.

Davron RAVSHANOV, viloyat soliq boshqarmasi axborot xizmati rahbari.

Vorislik mas'uliyatini anglagan pedagog

Uchinchi Renessans bunyodkori

radorligida ham muhim omil bo'lmoqda. Demak, pedagogika oliygohlari nafaqat o'qituvchi, balki zamonaviy yetakchilarni ham tarbiyalayotgan mas-kan hisoblanadi.

Davlatimiz rahbari yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda nuroniyatlarning hayotiy tajribasi-ga alohida e'tibor qaratdi. Bu yondashuv oliy ta'lim tizimida ham o'zining amaliy ifodasini topmoqda. Ta'lim muassasalari faxriylar kengashi a'zolari o'zlariga birlashtirilgan yoshlar bilan muntazam muloqot olib borish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Bunday uchrashuvlarda talabalar nafaqat ta'lim jarayonidagi masalalar, balki hayotiy tanlovlar, kasbiy rivojlanish, oilaviy qadriyatlar va shaxsiy kamolot bo'yicha ham nuroniyatlarning boy tajribasidan bahramand bo'lmoqda. Bu esa yoshlarda hayotga mas'uliyatli munosabat, Vatanga sadoqat va milliy qadriyatlarga hurmatni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Prezidentimiz tashabbusi bilan har haftaning payshanba kuni «Yoshlar kuni» deb e'lon qilingani ham yoshlar bilan ishlashning yanada ta'sirchan tizimini shakllantirdi. Institutimizda ushbu kun doirasida davlat tashkilotlari, banklar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ish beruvchilar va tadbirkorlar ishtirokida ochiq muloqotlar tashkil etilmoqda. Natijada bitiruvchi talabalarning bandligini ta'minlash, ularning startap g'oyalarini qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish va imtiyozli imkoniyatlardan foydalanish bo'yicha muhim natijalarga erishilmoqda.

Prezidentimiz bugungi kun muvaffaqiyatining uch ustuni sifatida bilim, kasb va texnologiyani e'tirof etdi. Bu tamoyil pedagogika oliy ta'lim muassasalari oldiga ham yangi vazifalarni qo'yimoqda. Endilikda pedagog nafaqat fanini mukammal bilishi, balki raqamli texnologiyalarni egallagan, xorijiy tillarni biladigan, sun'iy intellekt va zamonaviy ta'lim metod-



larini qo'llay oladigan mutaxassis bo'lishi zarur. Chunki ertangi maktab bugungi pedagog tayyorgarligiga bog'liq.

Zimmamizga yuklatilgan vazifalarning asosini yagona tushuncha — vorislk mas'uliyati birlashtiradi. Buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanish har birimiz uchun sharafdir. Shu bilan birga Prezidentimiz ta'kidlaganidek, vorislk faqat faxrlanish bilangina cheklanmaydi. Vorislk bu ajdodlar boshlab bergan ilmiy tafakkur, bunyodkorlik va ma'rifat yo'lini davom ettirish mas'uliyatini o'z zimmasiga olishdir. Aynan pedagog ana shu mas'uliyatni yosh avlod qalbiga singdiradigan eng asosiy shaxsdir.

Zero, Uchinchi Renessans poydevorini bino va inshootlar emas, balki tafakkuri yuksak, ma'naviyati boy, bilimli va vorislk mas'uliyatini anglagan insonlar barpo etadi. Ana shunday insonlarni tarbiyalaydigan pedagog esa Yangi O'zbekiston taraqqiyotining eng muhim bunyodkoridir.

Shahzoda NEGMATOVA, Samarqand davlat pedagogika instituti rektori, professor.

EKSPORT — FOYDANING KONI

Darhaqiqat, barcha rivojlangan davlatlar o'z qudratining asosini eksportda deb biladi. Ya'ni, mamlakatdagi xomashyoning qayta ishlanishi va tayyor mahsulot sifatida xorijga chiqarilishi katta daromad keltiradi.



Yashirib nima qilamiz, yaqin yillargacha biz faqat ayrim sohalardagina eksportga erishayotgan edik. Ayniqsa, qishloq xo'jaligida katta imkoniyatlar bo'la turib, ulardan yetarlicha foydalana olmay kelayotgan edik.

Bu muhim masala davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangach, vaziyat butunlay o'zgardi. Yillar davomida ichki bozorni to'ldirib kelgan mahsulotlarimiz endilikda xorijiy bozorlarda ham o'z o'rnini topmoqda.

Bu yil davlatimiz rahbari oldimizga meva-sabzavot va oziq-ovqat mahsulotlari eksportini 4 milliard dollarga yetkazish vazifasini qo'ydi. Belgilangan rejaga ko'ra, buning 2,7 milliard dollari meva-sabzavot mahsulotlariga to'g'ri keladi.

Yanvar–may oylarida 1 milliard 102 million dollarlik meva-sabzavot va oziq-ovqat mahsulotlari eksport qilindan. Shundan 623,6 million dollari meva-sabzavotdir. Eksport geografiasini 8 ta yangi bozorga kengaydi va mahsulotlarimiz 61 ta davlatga yetib bormoqda.

Mahsulotlar bozorini diversifikatsiya qilish hisobiga Amerika qit'asi, Yevropa, arab va Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlariga 74,7 million dollarlik eksport amalga oshirildi (jami eksportning 29 foizi).

Birlashgan Arab Amirliklari (GulFood 2026), Germaniya (Fruit Logistica 2026), Pokiston (Made in Uzbekistan), Saudiya Arabistoni (Makkah Halal Forum 2026) va Qatar (Doha Dry Fruits) kabi xalqaro ko'rgazmalarda 120 dan ortiq eksportchi ishtirok etib, 32,1

million dollarlik eksportoldi shartnomalar tuzildi.

Viloyatimizda 2026-yil yanvar–may oylarida jami 198,65 million dollarlik, 192,8 ming tonna mahsulot eksporti amalga oshirildi. Viloyatda quritilgan uzum (mayiz) va gilos eksporti bo'yicha yetakchilik kuzatilmogda.

Masalan, mayiz mahsuloti 2025-yil yakuniga ko'ra ishtixon tumanida 12 million 640 ming dollarni tashkil qilgan. 2026-yil boshidan hozirgacha 44 ta davlatga 21 ming tonnadan ortiq mayiz eksport qilindi.

Gilos eksporti bo'yicha Bulung'ur tumanidagi «Samarqand Garden Plast» MChJ korxonasi yetakchi hisoblanadi. Korxona zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan bo'lib, Xitoy, Rossiya, Ukraina, Belarus va boshqa davlatlarga eksport qilmoqda.

Korxonaning yillik eksport hajmi 5 ming tonnani tashkil etadi. 500 tonna gilos Janubiy Koreya, Xitoy, BAA va Rossiyaga eksport qilinmoqda.

Hozirda 10 million dollarlik 7 ming tonnadan ortiq mahsulot qayta ishlanib, eksportga tayyorlanmoqda. 200 gektar maydonda yetishtirilgan eksportbop giloslarni yuqori hosildorlikka ega.

Fitosanitar nazorat tizimi ham kuchaytirilgan bo'lib, mahsulotlar laboratoriyalarda tekshirilib, karantin sertifikatlari asosida eksport qilinmoqda.

Islomxon MARDONOV, o'simliklar karantini va himoyasi agentligi viloyat hududiy boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari.

Sport – bu nafaqat jismoniy kuch, balki yuksak iroda, intizom va qalb go'zalligi. Bu sifatlarni hayotining mazmuniga aylantirgan, Samarqandning ziyolilar xonadonida kamol topgan insonlardan biri taniqli pedagog va sport fidoyisi Orifjon Raupovdir. Uning bosib o'tgan yo'li yosh avlod uchun haqiqiy ibrat maktabi hisoblanadi.

1956-yilda Samarqand shahrida dunyoga kelgan Orifjon aka yoshligidanoq ilmga va sportga oshno tutindi. 1973-yilda shahardagi 95-maktabni muvaffaqiyatli tamomlagan yigit oldiga katta maqsadlar qo'ydi. 1974-yilda Tojikiston davlat jismoniy tarbiya institutiga o'qishga qabul qilindi. 1978-yilda mazkur dargohni jismoniy tarbiya o'qituvchisi hamda qilichbozlik bo'yicha murabbiy mutaxassisligi bo'yicha bitirdi.

Chorvachilikni yaqinda boshlaganlar naslli yoki mahalliy qoramolning afzalligiga ko'proq qiziqishadi. Men ham shu mavzu yuzasidan tumanimizda ko'p yillardan beri chorva boqadigan oilalarning fikrlarini o'rgandim.

Tumanning qaysi qishlog'iga bormang, deyarli har bir xonadonda qoramol boqilayotganini ko'rish mumkin. Keyingi yillarda esa mahalliy mollar bilan bir qatorda naslli chorva mollari soni ham ortib bormoqda. Buning sababi mahsuldorlik va daromad bilan bog'liq. Avvallari qishloq aholisi asosan mahalliy zotdagi sigir va buqalarni boqib kelgan. Bu mollar iqlimga moslashgan, kasalliklarga chidamli va parvarish talablari kamligi bilan ajralib turadi. Biroq ularning sut va go'sht mahsuldorligi nasldor qoramollarga nisbatan ancha past.

Bugungi kunda Past Darg'omdagi ayrim fermer xo'jaliklari va xonadonlarda "Golshteyn", "Simental" hamda "Shvits" kabi zotlarni uchratish mumkin. Ayniqsa, "Golshteyn" zotidagi sigirlar sut mahsuldorligi bilan ajralib turadi. Chor-

Murabbiylik kasbiga baxshida umr

Shu yildan boshlab uning pedagogik faoliyati boshlandi. Dastlab o'zi tahsil olgan Tojikiston davlat jismoniy tarbiya institutida ish boshlagan bo'lsa, 1979-yildan uning taqdiri ona shahridagi Samarqand davlat universiteti bilan bog'landi.

O.Raupov universitetning jismoniy tarbiya va sport kafedrasida oddiy o'qituvchilikdan kafedra mudirligigacha bo'lgan katta va sharaflı yo'lni bosib o'tdi.

Bu yillar faqatgina raqamlardan iborat emas, ularning ortida tinimsiz mehnat va yoshlar qalbiga yo'l topish san'ati yashiringan. Bekorga emas, har yili an'anaviy tarzda o'tkaziladigan "O'qituvchi talabalar nigohida" so'rovnomasida talabalar uning faoliyatini hamisha yuqori baholab, ustozga bo'lgan cheksiz

hurmatlarini izhor etib kelishadi.

Murabbiyning baxti — uning chempion shogirdlari, el koriga yaraydigan insonlar tayyorlaganida. O.Raupov iqtidorli yoshlarni kashf etish va ularni sport cho'qqilariga olib chiqishda mahorat ko'rsatdi. Uning mashaqqatli mehnati tufayli Pyotr Magay, Azimjon Raupov, Furqat Raupov, Mansur Abdiev, Shokir Arslonov kabi mahoratli sportchilar yetishib chiqdi va sport ustasi degan yuksak unvonga sazovor bo'ldi.

Ustoz tarbiyalagan jamoa 1986-yilda O'zbekiston spartakiadasida 2-o'rinni egalladi. Shuningdek, shogirdlari Ufa, Sverdlovsk, Moskva va Ashxobod shaharlarda bo'lib o'tgan nufuzli xalqaro turnirlarda shohsupalarga ko'tarilib, g'olib va sovrindorlar qatoridan joy oldi.



Ustoz nafaqat amaliyotchi murabbiy, balki yirik olim hamdir. Uning qalamiga mansub 90 dan ortiq o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ilmiy maqolalar bugungi kunda oliy ta'lim tizimi va o'quv jarayonlarida keng tatbiq etilmoqda. Kafedra mudiri va fakultet kengashi a'zosi sifatida u o'zining teran ilmiy qarashlari va ijobiy fikrlari bilan ta'lim muammolarini hal etishda faol ishtirok etib kelmoqda. O. Raupov o'zining jismoniy

tarbiya va sportdagi ulkan tajribasi, kamtarinligi va halolligi, eng muhimi, namunali oila boshlig'i ekanligi bilan universitet va fakultet jamoasi o'rtasida alohida hurmat qozongan.

Kasbiga bo'lgan sadoqati, ishga jiddiy va mas'uliyat bilan yondashishi munosib taqdirlanib, u hokimliklar va sport tashkilotlari rahbariyati tomonidan bir necha bor rag'batlantirilgan.

Ilmga chanoqqoqlik va mas'uliyatni o'ziga shior qilgan ustoz bugun ham shijoat bilan sport va ilm sohasini yuksaltirish, Vatanimiz bayrog'ini baland ko'taradigan sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish yo'lida xizmat qilmoqda.

Bugun Orifjon Raupov qutlug' 70 yoshini qarshi olmoqda. U kishiga oilaviy xotirjamlik, kuch-quvvat, ijodiy barkamollik tilaymiz. Hamisha do'stlar, yaqinlar va shogirdlar ardog'ida bo'lib yuring!

Akbar QURBONOV, Ne'mat ISAYEV, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsentlari.

Hamkasb yodi

Beshafqat o'lim tajribali hamkasbimiz, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist, mohir publitsist Sulaymon Husainovni oramizdan olib ketdi.



S.Husainov 1948-yil 9-may kuni Jomboy tumanining Qo'ng'iro't mahallasida tug'ilgan edi. Uning jurnalistikadagi mehnat faoliyati 1972-yilda tuman-dagi «Shonli mehnat» (hozirgi «Jomboy

tongi») gazetasida musahhihlikdan boshlangan. Kasbga mehri, izlanuvchanligi va fidoyiligi tufayli ijodiy yo'lida yuksalib, 1980-yildan «Lenin yo'li» (hozirgi «Zarafshon») gazetasida muxbir, so'ngra bo'lim mudiri sifatida samarali faoliyat yuritdi.

2004-yildan esa «XXI asr» gazetasining Samarqand viloyatidagi muxbiri, shuningdek, viloyat davlat soliq boshqarmasi axborot xizmati rahbari vazifasida mehnat qildi.

Sulaymon aka qariyb 45 yillik ijodiy faoliyati davomida jamiyat hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, dolzarb muammolar va inson taqdiri mavzularini qalamga olib, o'quvchilar e'tiborini qozongan publitsist sifatida tanildi. Uning maqolalari hayotiyiligi, xolisligi va ta'sirchanligi bilan ajralib turardi.

Ko'p yillik samarali mehnati e'tirof etilib, 2001-yilda S.Husainovga «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist» faxriy unvoni berilgandi.

Sulaymon Husainovning vafoti nafaqat viloyatimiz, balki mamlakatimiz jurnalistikasi uchun og'ir yo'qotish bo'ldi. Uning mehnati, boy ijodiy merosi va kasbga sadoqati hamkasblari va shogirdlari xotirasida hamisha saqlanib qoladi.

O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi viloyat bo'limi,

"Zarafshon" va Samarkandskiy vestnik" gazetaları tahririyati jamoasi.

Nasldor yoki mahalliy:

chorvaning qaysi zoti afzal?



vadorlarning aytishicha, yaxshi parvarish qilingan nasldor sigir kuniga 20 litrdan ortiq sut berishi mumkin. Oddiy qoramollarda esa bu ko'rsatkich ko'pincha 8–12 litr atrofida bo'ladi.

Nasldor qoramollar go'sht yo'nalishida ham ustunlikka ega. "Simental" zotidagi buqalar tez vazn yig'adi va go'sht chiqimi yuqori bo'ladi. Shu sababli go'sht yetishtirish bilan shug'ullanayotgan fermerlar orasida ushbu zotlarga talab ortib bormoqda.

Biroq mahsuldorlik ortishi bilan xarajat ham oshadi. Nasldor qoramollar sifatli yem-xashak, vitaminlar va veterinariya nazoratini talab qiladi. Agar parvarish yetarli bo'lmasa, kutilgan natijaga erishish qiyin. Mahalliy zotdagi mollar esa oddiyroq sharoitda ham boqilishi mumkin.

Bu masalada maslahat olish uchun Past Darg'om tumanida ko'p yillardan beri chorvachilik bilan shug'ullanib kelayotgan O'tkir aka bilan suhbatlashdim. Uning xonadonida mahalliy va nasldor qoramollar boqiladi.

— Ikkalasini ham boqib ko'rdim, farqini ham tushundim, — deydi chorvador O'tkir aka. — Nasldor sigirning suti ko'p, go'shti yaxshi bo'ladi, daromadi ham ko'proq. Lekin parvarishida ancha qiyinchilik va muammolar bor. Mahalliy qoramol esa kamroq mahsulot

bersa ham, boqilishi oson, kasalliklarga chidamli, qishlog'imiz iqlimiga moslashgan. Bugungi kunda ko'pchilik nasldor mol olishga intilmoqda. Bunga sabab bozorda sut va go'sht mahsulotlariga talabning ortib borayotganidir. Lekin har bir xo'jalik o'z imkoniyatidan kelib chiqib ish tutishi kerak.

Bizda chorvachilik nafaqat aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash, balki qo'shimcha daromad manbai sifatida ham qaraladi. Nasldor mollar sonining ortishi mahsuldorlikni oshirayotgan bo'lsa, mahalliy zotlar qishloq aholisining kundalik ehtiyojlarini qondirishda hamon muhim o'rin tutmoqda.

Bugungi chorvachilik tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, nasldor va mahalliy qoramollarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish to'g'ri emas. Har ikkisinin o'z afzalligi bor. Nasldor mollar yuqori mahsuldorlik manbai bo'lsa, mahalliy zotlar chidamliligi va kam xarajat talab qilishi bilan qadrlanadi. Pastdarg'omlik chorvadorlar ham aynan shu omillarni hisobga olgan holda o'z xo'jaliklarini rivojlandirib bormoqda.

Davlatbek JABBOVOV, Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

PROFESSOR-O'QITUVCHILAR DIQQATIGA !

Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti 2026-2027-o'quv yilida quyidagi mutaxassisliklar bo'yicha yuqori malakali va ilmiy darajaga ega bo'lgan professor-o'qituvchilarni tanlov asosida ishga taklif qiladi:

- jismoniy madaniyat (1 o'rin);
- musiqa ta'limi (1. 5 o'rin);
- texnologiya ta'limi (1 o'rin);
- tasviriy san'at va muhandislik grafikasi (0.5 o'rin);
- pedagogika (3 o'rin);
- maktabgacha ta'lim (3 o'rin);
- matematika (5.5 o'rin);
- biologiya (0.75 o'rin);
- kimyo (0.75 o'rin);
- fizika (1.75 o'rin);
- o'zbek tili va adabiyoti (3.5 o'rin);
- tarix (1.5 o'rin);
- tarix rus guruhlarga (0.5 o'rin);
- ingliz tili o'qituvchisi (2 o'rin);
- nemis tili o'qituvchisi (0.5 o'rin).

Ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga, chet tilini bilish darajasini belgilovchi sertifikatga ega nomzodlarga tanlovda ustuvorlik beriladi. Nomzodlar kerakli hujjatlar bilan 2026-yil 15-avgust kuniga qadar Kattaqo'rg'on davlat pedagogika institutiga murojaat etishlari so'raladi.

Manzil: Kattaqo'rg'on shahri Amir Temur ko'chasi, 27-uy.

Ma'lumot uchun telefonlar: (+99897) 422 34 40, (+99890) 469 38 30.

DA'VOLAR BO'LSA!

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum Xalimov Umed Abduraximovichga (2025-yil 31-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy.

*** Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Xaydarova Zaynab Raximovnaga (2025-yil 6-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy 3-xona.

*** Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Fatullayev Mavlyankul Pardayevichga (2025-yil 24-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy 3-xona.

*** Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasida marhum Mamadjonov Tolibjonaga (2019-yil 3-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Ibn Sino ko'chasi.

*** Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasida marhum G'ofurov Normurod G'afforovichga (2024-yil 19-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Ibn Sino ko'chasi.

*** Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahmonov Sarvar Ne'matillovich notarial idorasida marhum Karimova Kubaroga (1988-yil 23-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahmonov Sarvar Ne'matillovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 60-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasida marhum Diyarov Askarali Babakulovichga (2023-yil 8-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 126-uy, 4-xona.

*** Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Azizov Jahongir Ilhomovich notarial idorasida marhum Abduraxmanov Xikmat Axmedovichga (2000-yil 21-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Azizov Jahongir Ilhomovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Abdulla Qurbonov mahallasi, Saroy ko'chasi.

*** Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jahongir Ilhomovich notarial idorasida marhum Abduraxmonova Qanoatga (2018-yil 25-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jahongir Ilhomovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Abdulla Qurbonov mahallasi, Saroy ko'chasi.

*** Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Xodjaye Kuralbay Naxalbayevichga (2022-yil 13-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

*** Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Suvonova Maxpirat Urinboyevnaga (2025-yil 23-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Mavlyanov Muzaffar Ergashevichga (2018-yil 17-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 110-uy.

*** Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Abduraupova Zaynab Ximmatovnaga (2025-yil 25-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

*** Oqdaryo tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasida marhum Davlatov Uralboyga (2023-yil 9-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Oqdaryo tumani Loyish shaharchasi Amir Temur ko'chasi.

*** **BEKOR QILINADI!** Past Darg'om tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli 102-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining gerbli dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

*** Samarqand shahridagi "MEGA PROFIL BBS" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 309647635) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi

TOPGANGA MUKOFOT!

«MESE YOL» mas'uliyati cheklangan jamiyati balansida bo'lgan davlat raqami 30 EA 048 katok va davlat raqami 30 EA 050 avtogreyder uchun 2020-yil 26 va 31-dekabrda berilgan texnik pasportlar Samarqand shahar hududida yo'qolgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

Telefon: (+99891) 551-53-55.

Go‘sht o‘rniga... LOVIYA

Bugungi kunda sog‘lom turmush tarzi haqida ko‘p gapirilmoqda. Noto‘g‘ri ovqatlanish yurak-qon tomir kasalliklari, semirish va qandli diabet kabi muammolarning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Inson salomatligi, atrof-muhit muhofazasi va iqtisodiy barqarorlik masalalari bir-biri bilan bog‘liq.

Loviya oqsilga boy, yetishtirish samaradorligi yuqori va tuproq sifatini yaxshilay oladigan o‘simlik. U an‘anaviy go‘sht hamda go‘sht mahsulotlariga nisbatan arzonroq. Shu bilan birga, u tobora ko‘proq oshpazlar va oziq-ovqat ishqibozlari e‘tiborini tortmoqda. Loviya yangi ixtiro emas, u ming yillik madaniy tarixga ega. Uni do‘kon yoki restoran menyusiga kiritish uchun qayta kasht qilish shart emas. Biroq hozirgi oziq-ovqat tizimi ko‘proq go‘sht sanoatini qo‘llab-quvvatlaydi. Loviya o‘simliklari tuproqqa azot qo‘shish xususiyatiga ega, bu tabiiy o‘g‘it vazifasini bajaradi. Uni bug‘doy yoki karam kabi ekinlar bilan almashlab ekish tuproq sifatini yaxshilab, vaqt o‘tishi bilan hosildorlikni oshiradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, go‘sht iste‘molini kamaytirib, uning o‘rniga loviya, mosh, no‘xat kabi dukkakli mahsulotlarni ko‘proq iste‘mol qilish nafaqat foydali, balki oqilona tanlov hamdir. Dukkakli mahsulotlar o‘simlik oqsiliga boy. Qanday turdagi oqsil iste‘mol qilishimiz nafaqat sog‘ligimizga, balki atrof-muhit va global oziq-ovqat tizimiga ham katta ta‘sir ko‘rsatadi. Go‘sht iste‘molidan voz kechishga sog‘liq sababli bo‘lishi mumkin. Ammo oziq-ovqat uchun hayvon yetishtirish yer resurslaridan foydalanish, o‘rmonlarni kesish va uglerod chiqindilari mahsulotga ta‘sir qiladi. Jahon aholisi o‘sib borayotgan bir paytda har bir kishi hissasiga to‘g‘ri keladigan go‘sht ishlab chiqarish sur‘ati talabdan ham tezroq oshib bormoqda.

4 GRAMM MOL GO‘SHTI OQSILI OLISH MUMKIN BO‘LGAN YERDA 100 GRAMM O‘SIMLIK OQSILI YETISHTIRISH MUMKIN
AQSH Qishloq xo‘jaligi vazirligi hisobotiga ko‘ra, 2021–2022-yillar oralig‘ida loviya ekladigan maydon 10 foizga qisqargan bo‘lsa-da, hosildorlik 23 foizga oshgan. Bir kosa loviya taxminan 15 gramm oqsil (kunlik me‘vorning 30 foizi) beradi. Soya esa eng yuqori ko‘rsatkichga ega — bir kosada 31,3 gramm (63 foiz). 1960-yillardan beri AQSHda soya katta hajmda yetishtiriladi. Ammo dunyo bo‘yicha soya-ning uchdan to‘rt qismi chorva uchun yem sifatida ishlatiladi. Faqat 7 foizi inson iste‘moliga ketadi. Yerdan foydalanish nuqtai nazaridan, 4 gramm mol go‘shti oqsili olish mumkin bo‘lgan yerda 100 gramm o‘simlik oqsili yetishtirish mumkin. Jahon aholisi o‘sib borayotgan sharoitda bunday samarasizlik oziq-ovqat xavfsizligi muammosini yanada kuchaytiradi. Mutaxassislarning ta‘kidlashicha, loviya iste‘molini oshirish uchun odamlarni uni to‘g‘ri tayyorlashga o‘rgatish muhim.

TEJAMKOR VA EKOLOGIK TO‘G‘RI QAROR
Loviya tarkibida organizm uchun zarur bo‘lgan oqsil, tola (ketchatka), temir, magniy va V guruhi vitaminlari mavjud. Ular yurak-qon tomir kasalliklari xavfini kamaytiradi, qondagi xolesterin miqdorini pasaytiradi, ovqat hazm qilish tizimini yaxshilaydi va uzoq vaqt to‘g‘lik hissin beradi. Go‘sht ortiqcha iste‘mol qilganda esa ayrim surunkali kasalliklar xavfini oshirishi mumkin. Shu munosabat bilan o‘simlik manbali oqsillarning profilaktik ahamiyatini ilmiy asosda o‘rganish dolzarb hisoblanadi. Shuning uchun haftada kamida bir necha marta go‘sht o‘rniga dukkakli taomlar tanlash sog‘lom ovqatlanishning muhim qismi hisoblanadi. Chorvachilik katta miqdorda suv va yer resurslarini talab qiladi. Shu bilan birga, issiqxona gazlari chiqindilarining sezilarli qismi ham aynan shu sohadan chiqadi. Go‘shstdan butunlay voz kechish shart emas. Ammo uning

o‘rniga vaqti bilan loviya va boshqa dukkakli mahsulotlar-ni tanlash sog‘lom, tejamkor va ekologik to‘g‘ri qaror.

YURAK KASALLIKLARI XAVFI KAMAYADI
Olimlar tomonidan 36 ta randomized controlled trial (tasodifiy nazoratli sinashlar) ma‘lumotlarini tahlil qilishgan. Ular 1803 nafar ishtirokchining oziq-ovqat ratsionini solishtirdi: go‘shstga boy parhez va o‘simlik oqsillariga boy parhez (mushaklar, dukkakli-lar, soya, yong‘oqlar). Go‘shst bilan solishtirganda, yuqori sifatli o‘simlik oqsillarini iste‘mol qilganlarda umumiy xolesterin va “yomon” LDL xolesterin darajasi pastroq bo‘lgan. Shunday qilib, o‘simlik oqsillariga asoslangan ratsion yurak kasalliklari xavfini kamaytirishi ko‘rsatilgan. Bu tadqiqot go‘shst o‘rni-ga dukkakli mahsulotlar (loviya, no‘xat, soya), yong‘oqlar va boshqa o‘simlik oqsillari iste‘moli sog‘liq uchun yaxshi ekanini ilmiy ravishda tasdiqlaydi. Harvard olimlari ta‘kidlashicha, bunday parhez yurak kasalliklari xavfini kamaytiradi va umumiy salomatlikni yaxshilashga yordam beradi.

Yurak-qon tomir kasalliklari bugungi kunda butun dunyo-da o‘limning yetakchi sabablaridan biri hisoblanadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, noto‘g‘ri ovqatlanish, jumladan, to‘yingan yog‘larga boy mahsulotlarni ortiqcha iste‘mol qilish bu xavfni oshiruvchi asosiy omillardan biridir. So‘nggi yillarda oziq-ovqat epidemiologiyasi sohasida olib borilgan tadqiqotlar ratsiondagi go‘shst ulushini kamaytirish va uni o‘simlik manbali oqsillar bilan almashtirish salomatlik uchun ijobiy natija berishini ko‘rsatmoqda.

SALOMATLIKNI MUSTAHKAMLAYDI, EKOLOGIK VA IQTISODIY JIHATDAN FOYDALI
Go‘shstni yuqori sifatli o‘simlik oqsillari bilan almashtirish yurak-qon tomir kasalliklari profilaktikasida samarali strategiya hisoblanadi. Ratsionga loviya, no‘xat, mosh, soya va yong‘oqlarni muntazam kiritish sog‘lom turmush tarzining muhim qismi. Bu mahsulotlar arzon, serto‘yim va sog‘lom mahsulot. Bular go‘shstga muqobil oqsil manbai bo‘lib, sog‘lom ovqatlanishda muhim o‘rin tutadi. Kundalik ratsion-ga loviyani kiritish nafaqat salomatlikni mustahkamlaydi, balki ekologik va iqtisodiy jihatdan ham foydali tanlovdir.
Bahrom TO‘XTAROV,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti kafedra mudiri, tibbiyot fanlari doktori, professor.

Suvga bo‘lgan talab va ehtiyoj har qachongidan ortib bormoqda. Shu bois ko‘plab davlatlarda suv tanqisligi kuzatilyapti. Ushbu dolzarb masala Markaziy Osiyo mintaqasini ham chetlab o‘tgani yo‘q. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko‘ra, 2050-yilgacha suv resurslari Sirdaryo havzasida 5 foizgacha, Amudaryo havzasida 15 foizgacha kamayishi mumkin. Boshqa tomondan esa, aholining o‘ishi hisobiga O‘zbekistonda 2030-yilga borib, suvga bo‘lgan talab 7 milliard kub metrga yetishi, 2050-yilga borib esa, bu ko‘rsatkich ikki barobarga ortishi mumkin. Lekin bugungi kunda suv resurslaridan, jumladan, yer osti suvlaridan foydalanish borasida ahvolimiz qay darajada? Fikrimcha, yer osti suvlaridan cheksiz va yanada ko‘proq foydalanish yo‘liga o‘tib olganmiz.

Suvning hisobi yo‘qmi?

E‘tibor bergan bo‘lsangiz, keyingi yillarda xalq tilida “Moyka” deb ataladigan mashina yuvish shoxobchalari bahordagi yomg‘irdan keyin potirlab chiqadigan qo‘ziqorindek nihoyatda ko‘payib ketdi. Mutasaddi mas‘ullarning ma‘lumotiga ko‘ra, bu shoxobchalarda yer osti suvlaridan foydalanish-da qo‘yiladigan barcha talablar bajarilmoqda ekan. Ehtimol shundaydir. Lekin yer osti suvidan bunchalik ko‘p foydalashish oxir oqibat o‘zining salbiy holatlarini ko‘rsatmaydi, deb kim kafolat beradi? Misol uchun, Samarqand shahrining Hazora shohbekatidan o‘ng tomonda (Sug‘diyona taraf) Xishrav qo‘rg‘oniga ketadigan yo‘lgacha bo‘lgan 4 kilometrlik masofada yo‘lning har ikki tarafida 50 ta shunday “moyka”lar (sal ichkaridagilarni sanamadim) bor ekan. Bor yo‘g‘i 4 kilometrlik masofada shuncha bo‘lsa, butun shahar bo‘yicha bulardan nechta va ularning bir kunlik suv sarfi, yer osti suvlarining zahirasi qancha va har yili qanchaga kamaymoqda? Bularning hisobi bormi? Ehtimol, vaziyat hozircha yaxshidir, lekin yog‘ingarchiliklar (ayniqsa, qor)ning yildan-yilga kam yog‘ishi yer osti suvlari zaxirasiga ham salbiy ta‘sir etishi tabiiy. Shu o‘rinda aytish mumkinki, yaqin qo‘shnimiz bo‘lgan Qirg‘iz Respublikasi poytaxti Bishkekda bir necha yil oldin “moyka”lar sonini qisqartirish, ularni markazlashgan holda ma‘lum hududlarda faoliyat yuritishini ta‘minlash borasidagi ishlari o‘rnak olishga arziydi. Agar yer osti suvlari kamayib, suv pastlab ketsa, shaharda daraxtlarning qurishi va yashillikning, demakki, toza havoning yo‘qolishiga olib keladi. Afsuski, bu holat faqat Samarqand shahriga emas, butun viloyatga ham xos bo‘lib qolmoqda. Shuning uchun bu boradagi kelgusida amalga oshiriladigan ishlarni o‘ylab ko‘rsak, foydadan xoli bo‘lmas edi.

O‘.XUDOYBERDIYEV.

VIJDONNING BUG‘UNGI SO‘ROGI
*Farzandingizga
alkogol yoki
tamaki olib
kelishni buyurib,
unga tarbiyadan
gapirmang.*

“O‘zbekistonni xavfli hudud deyishgan”

Yaponiyalik talaba ko‘hna kentga qanday “oshiq” bo‘ldi?

Samarqand davlat chet tillar instituti talabasiman. Yapon tiliga bo‘lgan qiziqishim meni shaharda faoliyat yuritayotgan yaponlar kafesida ishlashga undadi. Aynan shu yerda Yaponiyadan kelgan Maeda Sara bilan tanishdim. Sara bilan har gal suhbatlash-ganimda O‘zbekiston haqidagi taassurotlari, Samarqanddagi hayoti va bu yerda o‘rtirgan tajribalari haqida so‘rayman. Sara esa o‘zbek xalqining meh-mondo‘stligi, shaharning boy tarixi va bu yerdagi hayot haqida hayrat bilan so‘zlab beradi. U hozirda Yaponiyadagi Kobe chet tillari universitetining Amerika va Buyuk Britaniya adabiyoti ham-da madaniyati yo‘nalishida tahsil oladi.

Saraning aytishicha, uning Samarqandga kelishi tasodif emas. U O‘zbekiston haqidagi tasavvurlarni shaxsan tekshirib ko‘rish uchun yurtimizga kelgan. - Yaponiyada ba‘zilar O‘zbekistonni xavfli hudud deb aytgandi, - deydi Sara. - Men esa bu fikrlar qanchalik haqiqat-ligini o‘z ko‘zim bilan ko‘rishni istadim. Samarqandni tanlashim boisi tarixga qiziqaman. Mak-tab paytlarimdayoq Amir Temur davlati va Samarqand tarixi haqida o‘qiganman, bu shahar haqida o‘ziga xos tasavvurlarim bor. Keyinchalik universitet-da O‘zbekistonning siyosati va madaniyatini chuqurroq o‘rganib, Samarqandni ko‘rish

orzusi yanada kuchaydi. Ros-ti, Samarqandni faqat tarixiy obidalar shahri deb o‘ylardim. Kelib ko‘rsam, u kutganimdan ham zamonaviy, rivojlangan va shiddat bilan taraqqiy etayotgan shahar ekan va xalqi juda meh-mondo‘st. Ko‘chada ham, ishda ham insonlarga samimiy munosa-batni his etasiz. Yaponiyada odamlar ko‘pincha muammo-larini mustaqil hal qilishga harakat qiladi. O‘zbekistonda esa insonlar bir-biridan yordam so‘rashdan uyalmaydi. Bu esa jamiyatdagi munosabatlarni yanada mustahkamlaydi. Saraning fikricha, chet el-dagi hayot insonni o‘zgartiradi, dunyoqarashini kengaytiradi. O‘zbekistonda yashash unga nafaqat boshqa madaniyatni anglash, balki o‘z mamlakatiga ham yangicha nigoh bilan qarash imkonini bergan. Maeda Saraning hayotiy tajribasi Samarqand-ni xorijlik yoshlar nigohidagi qiyofasini yaqqol namoyon etadi. Uning taassurotlaridan ko‘rina-diki, bu qadimiy shahar nafaqat o‘zining boy tarixi va me‘moriy obidalari, balki tinch va xavf-siz muhiti, mehribon insonlari hamda madaniy rang-barangli-gi bilan ham xorijliklarni o‘ziga maftun etmoqda. Bu esa qadim va navqiron shaharning xalqaro maydondagi nufuzi tobora yuksalib borayotganidan dalolat beradi.

Maria-Fatima RAIMOVA.

Yoz – bolalikning eng go‘zal fasli. Maktab darsliklari bir chetga surilib, uch oylik ta‘til boshlanishi bilan har bir o‘g‘il-qiz unutilmas sarguzashtlarni sog‘inadi. Ayni kunlarda viloyatda ana shunday unutilmas onlarni bolajonlarga tuhfa etish, ularning yozgi ta‘tilini mazmunli va sog‘lomlashtiruvchi muhitda tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Viloyatda 7 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lgan bolalar soni 544 ming 88 nafarni tashkil etadi. Albatta, ularning har biri e‘tibor va g‘amxo‘rlikka loyiq. Joriy mavsumda Samarqandning xushhavo bag‘ridagi 14 ta bolalar sog‘lomlashtirish oromgohida 8710 nafar o‘g‘il-qizning 5 ta mavsum (potok) davomida dam olishi rejalashtirilgan. E‘tiborlisi, ularning 6885 nafari Bolalarning dam olishini va sog‘lomlashtirishini tashkil etish departamenti tizimidagi 10 ta zamonaviy oromgohda hordiq chiqarmoqda.

Bugungi kun bolasini faqatgina tabiat go‘ynidagi oddiy xona bilan hayron qoldirib bo‘lmaydi. Ularga zamonaviy sharoit, qulaylik va qiziqarli mashg‘ulotlar kerak. Shu bois bolalarning dam olishini va sog‘lomlashtirishini tashkil etish departamenti tomonidan oromgohlarning moddiy-texnik bazasi-

Oromgohlarda mavsum qanday o‘tyapti?



ni tubdan yangilash uchun 6 milliard 856 million so‘mdan ziyod mablag‘ yo‘naltilirli. Oromgohlarda yotoqxonalar uchun yangi mebel jihozlari xarid qilindi. Bolalarning iqtidorini charxlash maqsadida kulolchilik va boshqa hunar-mandchilik to‘garaklari uchun maxsus uskunalar o‘rnatildi. Oromgohlarga olib boruvchi avtomobil yo‘llari, ko‘priklar ta‘mirlandi, suv va elektr ta‘mino-ti, yong‘in xavfsizligi tizimlari to‘liq yangilandi. Bugun mavsumning dastlabki ikki bosqichi yakuniga yetdi va bu vaqt ichida 4500 nafar bola dam oldi. Oromgohlar shunchaki dam olish maskani emas, balki haqiqiy mahorat va do‘stlik

maydoniga aylandi. Bolalar sport musobaqalarida kuch sinash-moqda, ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar va madaniy kechalarda o‘z iqtidorini namoyish etmoqda, ijodiy to‘garaklarda hunar o‘rganmoqda, sog‘lom tur-mush tarzi ko‘nikmalarini o‘zlashtirmoqda. Bugungi kunda viloyatdagi barcha oromgoh-larda yozgi mavsum yuqori darajada, ko‘tarin-ki ruhda davom etmoqda. Mas‘ul tashkilotlar bolalarning xavfsizligi, sifatli va vitaminlarga boy ovqatlanishi, malakali tibbiy xizmat ko‘rsatilishini nazorat qilib bormoqda.

Xurshida ERNAZAROVA.

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 321 nusxada chop etildi. Buyurtma 261. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E‘LONLAR: (66) 233-91-56

BO‘LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

O‘.XUDOYBERDIYEV.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o‘tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda

